

**BYUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALAR AMORTIZATSIYASI
HISOBINING AMALIY JIHATLARI**

Xolmurodova Durdona Otamurod qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti, durdonaxolmurodova20@gmail.com

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori, ostonokulov@rambler.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarining amortizatsiyasi hisobi, amortizatsiya qilinadigan aktivlarga amortizatsiya me'yorlari, eskirish hisoblash usullari, byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarining eskirishining hujjatlarda aks ettirilishi shu bilan birga asosiy vositalarning amortizatsiyasiga oid buxgalteriya o'tkazmalari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: asosiy vosita, amortizatsiya, amortizatsiya me'yorlari, byudjet tashkiloti, boshlang'ich qiymat.

Abstract: In this article, the calculation of depreciation of fixed assets in budget organizations, depreciation standards for depreciable assets, depreciation calculation methods, the documentation of depreciation of fixed assets in budget organizations, as well as the accounting transfers related to depreciation of fixed assets are presented.

Keywords: fixed asset, amortization, amortization standards, budget organization, initial value.

Аннотация: В данной статье рассмотрен расчет амортизации основных средств в бюджетных организациях, нормы амортизации амортизуемых активов, методы расчета амортизации, документальное оформление амортизации основных средств в бюджетных организациях, а также бухгалтерские трансферты, связанные с амортизацией основных средств.

Ключевые слова: основные средства, амортизация, нормы амортизации, бюджетная организация, первоначальная стоимость.

KIRISH

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalasi hozirgi kunda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning negizi hisoblanib, ushbu o'zgarishlar barcha sohalarni qamrab olgan holda o'z samarasini berib kelmayotgani sir emas. Jumladan, davlat sektorida ham islohotlarning amalga oshirilayotganligi bu sohada tashkiliy-uslubiy jihatdan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, xorij tajribasini chuqur o'rgangan holda milliy iqtisodiyotimizga halqaro standartlar talablarini joriy etishni taqozo etmoqda. Mamlakatimiz byudjet tizimida mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar talablaridan kelib chiqib byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi va nazoratini bosqichma-bosqich isloh qilib borish zamon talabi hisoblanadi.

Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi alohida tashkil etiladi. Tashkilotlar o'zlarining zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlarini amalga oshirishi, shuningdek, ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish)

jarayonida foydalaniladigan, qiymatidan qat'iy nazar 1 yildan ortiq xizmat qilish muddatiga ega bo'lgan moddiy aktivlarni buxgalteriya hisobida asosiy vositalar tarkibida hisobga oladi va aks ettiradi.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot olib borish davomida iqtisodiy voqelik jarayonlarini o'rganishning ilmiy usullari - umumlashtirish, guruhlashtirish va taqqoslama usullar, monografik tadqiqot, iqtisodiy tahlil, statistika, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy taqqoslash, kuzatuv, nazariy va amaliy o'rganish, omilli tahlil, istiqbolli va boshqa usullardan foydalanildi.

ADABIYOTLAR SHARXI

Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar amortizatsiyasi hisobining amaliy jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo, ushbu jarayonni tartibga soluvchi normativ huquqiy hujjatlarga murojaat qilamiz. Byudjet tashkilotlarida umumiyl holatda buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hujjatlarning rasmiylashtirilishi bevosita "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnomalar bilan tartibga solinadi. Xususan, byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarni harakatini hujjatlashtirish, hisobga olish, asosiy vositalarning harakati jarayonini yuritish, amortizatsiya hisoblash va shu kabi masalalar mazkur yo'rinnoma bilan tartibga solinadi. Byudjet "tashkilotlari asosiy vositalarining eskirishi mazkur yo'rinnomaning 63-ilovasiga muvofiq byudjet tashkilotlari asosiy vositalarining yillik eskirish me'yorlaridan (keyingi o'rnlarda eskirish me'yorlari deb yuritiladi) kelib chiqqan holda, har yili aniqlanadi va har oyda shu tashkilotlarning buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettiriladi. Bunda, eskirish me'yorlari asosiy vositalarning dastlabki (tiklanish) qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanishi nazarda tutilgan"³³.

Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobiga oid ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan. Xususan, xorijlik olimlardan, Team Kissflow tomonidan "tashkilotlarda asosiy vositalarning amortizatsiyasini hisoblash usullari, ularni qo'llash yo'naliishlari, hisobga olish tratihi aniq misollar yordamida tadqiq etilgan. Amortizatsiya hisoblash usullarini tanlashga ta'sir qiluvchi omillar keltirib o'tilgan. Shuningdek, biznes uchun mos bo'lgan amortizatsiya hisoblashning usulini tanlash yuzasidan tavsiyalarni shakllantirgan"³⁴.

Mamlakatimiz olimlaridan Z.N.Kurbanov tomonidan asosiy vositalar amortizatsiya hisobini takomillashtirish yuzasidan izlanish olib borgan. Bunda, "xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda asosiy vositalarning amortizatsiya me'yorlarining amal qilishi, ular bilan bog'liq holda amortizatsiya ajratmalarini aniqlash, amortizatsiya hisoblash qaydnomalarini shakllantirish, hisobga olish, amortizatsiya xarajatlarining moliyaviy natijalarga o'tkazilishi kabi masalalar yoritilgan hamda ularni takomillashtirish"³⁵ yuzasidan takliflar berilgan/

M.Quldosheva hamda A.Ostonokulov tomonidan byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar bo'yicha inventarizatsiyani tashkil etish va natijalarni hisobda aks ettirishning xususiyatlari yuzasidan izlanish olib borilgan. Bunda, "asosiy vositalarning kamomad

³³ "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnomalar (22.12.2010 yil, №2169-son)

³⁴ Team Kissflow. Choosing Fixed Asset Depreciation Method for Your Organization. Updated on 17 Oct 2023 <https://kissflow.com/finance/asset-management/fixed-asset-depreciation-methods/>

³⁵ Kurbanov Z.N., Nazarov A.K. Sovershenstvovanie ucheta amortizatsionix otchisleniy osnovnix sredstv. Economics: Yesterday, Today and Tomorrow. 2022, Vol. 12, Is. 8A

natijasida hisobdan chiqarilishi jarayonida hisoblangan amortizatsiya summalarining hisobdan ichqarilishi hamda ortiqcha chiqqan asosiy vositalarni balansga kirim qilishda ularning amortizatsiya me'yorlarini belgilab olish masalalariga aniqlik kiritilgan”³⁶.

Bizningcha, ushbu izlanishlarda byudjet tashkilotlarining faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib hamda asosiy vositalarning foydalanish yo'nalishlarini hisobga olgan holda ularga hisoblanadigan amortizatsiya ajratmalari hisobini alohida tadqiq etimagan. Shu boisdan, byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar amortizatsiya hisobini amaliy jihatdan o'rGANISH zarurdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asosiy vositalar qiymati amortizatsiyani hisoblash yo'li bilan qoplanadi. Amortizatsiyalanadigan qiymat butun foydali xizmat davri mobaynida tashkilot xarajatlariga Standartda ko'rsatilgan tartibda tizimli ravishda taqsimlanadi. Tashkilot asosiy vosita guruhining tan olingan boshlang'ich qiymatini har bir qismga taqsimlaydi va obyektning har bir qismiga alohida amortizatsiyalanadigan qiymatni hisoblaydi. Aktivning foydali xizmat davri va likvidatsion qiymati har bir yillik hisobot sanasida qayta ko'rib chiqiladi va kutilgan baholashlarda o'zgarish yuz berganda mazkur o'zgarishlar 1-sonli BHS “Hisob siyosati”ga³⁷ muvofiq hisobot siyosatidagi o'zgarishlar sifatida qabul qilinadi.

Asosiy vosita obyektiga amortizatsiya xarajatlarini hisoblash obyekt asosiy vosita tarkibiga qo'shib olingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlanadi va obyekt balansdan chiqarilmaguniga yoki to'liq amortizatsiya hisoblanilguniga qadar davom etadi.

Asosiy vosita obyektiga amortizatsiya hisoblanishi uning balans qiymatini tugatish qiymatigacha yoki obyekt balansdan chiqarilmaguniga qadar davom etadi.

Amortizatsiya quyidagi asosiy vositalar bo'yicha aniqlanmaydi:

yer uchastkalari arxitektura va san'atning noyob yodgorliklari bo'lgan imoratlar va inshootlar;

kabinet va laboratoriyalarda joylashgan o'quv ishlari va ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan jihozlar, eksponatlar, nus xa lar, amaldagi va amal qilmayotgan modellar, maketlar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalar;

mahsuldar qoramollar, qo'tsolar, hayvonot olami eksponatlari (hayvonot bog'i va shunga o'xshash tashkilotlarda);

foydalanish mumkin bo'lgan yoshga etmagan ko'p yillik ko'chatlar;

kutubxona fondlari;

filmlar fondi;

sahnaga qo'yish uskunalari, badiiy va muzey buyumlari;

qabul qilish dalolatnomasi rasmiy lashtirilmagan kapital qurilish obyektlari yoki uning qismlari hamda tugallanmagan qurilishlar.³⁸

Asosiy vositalar obyektining foydali xizmat davri davomida amortizatsiya hisoblanishi to'xtatilmaydi, bundan ularni butkul to'xtatish sharti bilan obyektni qurib

³⁶ Kuldashova M., Ostonokulov A. “Moliya” ilmiy jurnali. 2013 yil 4-soni. 23-27-betlar

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Byudjet hisobining standarti (1-sonli BHS) “Hisob siyosati”ga (ro'yxat raqami 2853, 2016-yil 27-dekabr)

³⁸ Tuychiyev, A. J., Ostonokulov, A. A., Ibragimov, K. S., & Tursunov, A. S. (2019). Budget Accounting in Budget Organizations. Textbook," ECONOMICS-FINANCE, 429.

bitkazish, to'liq jihozlash, qayta qurish, zamonaviylashtirish, texnik qayta qurollantirish davri mustasno. Ba'zi hollarda, ma'lum bir qonun hujjatlariga muvofiq obyekt yomon saqlanishi yoki ta'mirlash ishlari noaniq muddatga kechiktirilishi mumkin. Bunday hollarda asosiy vositaning foydalanish davri qayta ko'rib chiqilishi va to'g'rilanishi kerak.

Asosiy vosita obyektlari bo'yicha amortizatsiya hisoblash hisobot davrida amalga oshiriladi va buxgalteriya hisobida tegishli hisobot davrida aks ettiriladi. Amortizatsiya hisoblash asosiy vositalar obyektlari qiymatining 100 foizidan oshib ketishi mumkin emas. Agar yer uchastkasining boshlang'ich qiymati tarkibiga demontaj, ko'chirish va qayta tiklash maydonlari xarajatlari kiritilsa, bu er uchastkasi aktiviga yuqoridagi xarajatlar amalga oshirilganidan keyingi samarali xizmati davri uchun amortizatsiya hisoblanadi.

Ba'zi hollarda er uchastkasi chegaralangan foydalanish davriga ega bo'ladi va bunday hollarda uning qiymati kelajakda kelishi kutilayotgan iqtisodiy daromad va foydaga asosan aniqlanadi. Tashkilot asosiy vositaning boshlang'ich qiymatini uning aniq ajralgan bo'laklariga asosan taqsimlaydi va har bir qismga alohida amortizatsiya hisoblaydi (masalan, ko'p hollarda yo'lak, betonli to'siq, piyodalar o'tish joyi va yo'llarni yoritish tizimlariga alohida amortizatsiya hisoblash talab etiladi).

Hisobot davrida amortizatsiya summasi, qoidaga ko'ra xarajat sifatida tan olinadi. Biroq tashkilotga kelishi kutilayotgan iqtisodiy manfaat va foydaga qarab amortizatsiya summasi ishlab chiqarilayotgan tovar (bajarilayotgan ishlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar) tannarxiga kiritiladi.

Amortizatsiyani hisoblash quyidagi usullarni qo'llash orqali amalga oshiriladi:

a) amortizatsiyani hisoblashning bir maromli (to'g'ri chiziqli) usuli. Mazkur hisoblash usulida amortizatsiya asosiy vositalarni foydali xizmat davri mobaynida ularning amortizatsiya qiymatidan kelib chiqqan holda bir maromda teng ulushlarda hisoblanadi.

Bir maromli (to'g'ri chiziqli) usulga ko'ra asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymati uning xizmat muddati davomida tegishli xarajatlarga bir maromda – hisobdan chiqariladi (taqsimlanadi). Ushbu usul amortizatsiya me'yori foydali xizmat davrining faoliyatiga bog'liqligiga asoslangan. Har bir davr uchun amortizatsiya ajratmalari summasi amortizatsiya qiymatini asosiy vositalardan foydalanilgan hisobot davrlari soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Amortizatsiyani bir maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymat va mazkur obyektning foydali xizmat davridan kelib chiqib aniqlanadi;

b) amortizatsiyani bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblashning ishlab chiqarish usuli. Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usuli har bir muayyan yildagi asosiy vositalarning ishlab chiqarish quvvati hisobga olinishiga asoslangan. Mazkur usul bo'yicha amortizatsiyaning har yilgi qiymatini hisoblash uchun butun foydali xizmat davridagi umumiy baholangan ishlab chiqarish quvvati yig'indisi va mazkur muayyan yildagi ishlab chiqarish quvvati aniqlanishi lozim. Ishlab chiqarish quvvati sifatida ishlab chiqariladigan mahsulot birlklari soni, ishlangan soatlar soni, og'irlik, bosib o'tilgan kilometrlar miqdori va boshqalar olinishi mumkin.

Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot davridagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmining natural ko'rsatkichidan hamda asosiy vositalar amortizatsiyalanadigan qiymatning asosiy vositalar butun foydali xizmat davrida nazarda tutilayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga nisbatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Asosiy vositaga qo'llaniladigan amortizatsiya hisoblash usuli har bir yillik hisobot sanasi uchun minimal qiymat sifatida qaralishi kerak va kutilayotgan iqtisodiy manfaat yoki foydali salohiyatda o'zgarish kutilsa, bu o'zgarishlarni aks ettirish uchun amortizatsiya hisoblash usuli o'zgartirilishi zarur. Amortizatsiya qilinadigan barcha aktivlar (bundan nomoddiy aktivlar mustasno) bo'yicha amortizatsiyani hisoblash amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari qo'llanilgan holda to'g'ri chiziqli usul orqali amalga oshiriladi (1-jadval).

1-jadval


Amortizatsiya qilinadigan aktivlarga amortizatsiya me'yorlari³⁹

Guruhsalar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Amortizatsiya guruhlarining (kichik guruhlarining) nomi	Amortizatsiya normasi, foizlarda
1		Binolar va inshootlar	
	1.1	Binolar	5
	1.2	Inshootlar	10
2		Quvurlar, elektr uzatish va telekommunikatsiyalar liniyalari	15
3		Mashinalar va uskunalar (transport uskunalaridan tashqari)	20
4		Transport uskunalar	
	4.1	Havo va kosmik uchish apparatlari va ular bilan bog'liq uskunalar, kemalar va qayiqlar, lokomotivlar va harakatdagi tarkib (temir yo'l tarkibi)	10
	4.2	Avtotransport vositalari, avtomobil kuzovlari (korpuslari), tirkamalar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalar	20
5		Kompyuterlar va periferiya uskunalar	40
6		Boshqa guruhlarga kiritilmagan amortizatsiya qilinadigan aktivlar	15

Asosiy vosita obyektlari bo'yicha eskirish hisoblash hisobot davrida amalga shiriladi va buxgalteriya hisobida tegishli hisobot davrida aks ettiriladi. Eskirish hisoblash asosiy vositalar obyektlari qiymatining 100 foizidan oshib ketishi mumkin emas. Hisobot yili mobaynida buxgalteriya hisobi va hisobotlarda asosiy vositalarning qayta baholanishi, kirim qilinishi va hisobdan chiqarilishi (eskirganligi tufayli tugatilishi munosabati bilan ularni hisobdan chiqarilishi natijasida ham) hisobiga eskirishning umumiy summasi o'zgarishi mumkin.

³⁹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 306-modda. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

Har oyda hisoblangan eskirish summasi tegishli inventar kartochkalar (kitoblar)da asosiy vositalar obyektlari bo'yicha hisobi yozib borilmaydi. Agar asosiy vositalar tugatilayotganda yoki boshqa tashkilotga berilayotganda, shuningdek, obyektlarni eskirishining yillik me'yori belgilangan tartibda o'zgartirilayotgan bo'lsa, asosiy vosita obyektlarining butun foydalanish muddati mobaynida hisoblangan to'liq eskirish summasi alohida inventar obyektlari bo'yicha aniqlanadi.



1-rasm. Asosiy vositalar eskirishi hisobini hujjatlashtirishing sxemasi ko'rinishi⁴⁰

Asosiy vositalarning eskirishi buyicha sintetik hisobi 02 «asosiy vositalarning eskirishi» schyotida kuyidagi subschyotlarga bo'lingan holda aks ettiriladi:

- 020 «Turarjoy imoratlarning eskirishi»;
- 021 «Noturar joy imoratlarning eskirishi»;
- 022 «Inshootlarning eskirishi»;
- 023 «Mashina va jihozlarning eskirishi»;
- 025 «Transport vositalarining eskirishi»;
- 029 «Boshka asosiy vositalarning eskirishi».

Mazkur subschyotlarning kredit tomonida asosiy vositalarga eskirish hisoblanishi, debet tomonida esa, hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi.

2-jadval

Asosiy vositalarning amortizatsiyalari bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari⁴¹

T/r	Muomala mazmuni	Dt	kt
1	Asosiy vositalarga eskirish hisoblanishi	231,241,251, 26lyoki 271 schotlarining isi	02-schyotlarining tegishli lari
2	Boshqa tashkilotlardan beg'araz olingen va avval anishda bo'lgan asosiy vositalar-invyentar obyektlar kelib tushganda: a) dastlabki (tiklanish) qiymatidan eskirishini n holda	01-schyotlarining tegishli	262

⁴⁰ Tuychiev, A. J., Ostonokulov, A. A., Ibragimov, K. S., & Tursunov, A. S. (2019). Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi. Darslik. T.: "IQTISOD MOLIYA", 390. 144-bet

⁴¹ Muallif tomonidan tuzilgan

		dari	
	b) eskirish summasiga	01-schyotlarining tegishli dari	02-schyotlarining tegishli dari
3	Qayta baholash natijasida asosiy vositani eskirish asini oshishi	28-schyotlarining tegishli dari	02-schyotlarining tegishli dari
4	Qayta baholash natijasida asosiy vositani eskirish asini oshishi	02-schyotlarining tegishli dari	28-schyotlarining tegishli dari
5	Balansdan chiqarilayotgan asosiy vositaga angan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi	02-schyotlarining tegishli dari	201

XULOSA

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida yangi iqtisodiy munosabatlarni ishlab chiqish va uni amalda keng joriy etish muhim axamiyat kasb etadi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar amortizatsiyasi hisobini oqilona tashkil etish shular jumlasidandir. Ushbu maqolada asosiy vositalar amortizatsiyasi hisobi va uning amaliy jihatlari yoritilishga harakat qilingan. Shu bilan birga muammo va takliflar keltirib o'tilgan.

Shuni hisobga olish kerakki, byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda asosan to'g'ri chiziqli usuldan foydalanishi va bu o'z navbatida, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning ushbu usuli byudjet tashkilotlari uchun hisob yuritishda qulaylik tug'dirishi hisobga olindi. Biroq, bu usulni qo'llash ayrim tarmoqlar uchun deyarli samarali emas. Asosiy vositalar, jumladan ularning aktiv qismi uchun amortizatsiya hisoblashning boshqa usuli, ya'ni bajarilgan ish hajmiga qarab amortizatsiya hisoblash usuli qo'llanilsa, maqsadga muvofiqdir. Bajarilgan ish hajmiga ko'ra amortizatsiya hisoblash usuli byudjet tashkilotlarda mavjud asosiy vositalardan samarali foydalanishni hamda mahsulot tannarxini to'g'ri, odilona aniqlashga imkon yaratadi.

O'z navbatida, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning tezlashtirilgan usullari qo'llanishi Soliq kodeksida ko'rsatilgan me'yordan dastlabki yillarda ko'proq hisoblangan, ya'ni musbat farq qismi soliq bazasiga qo'shiladi, lekin oxirgi yillarda kamroq hisoblangan amortizatsiya summasi, ya'ni manfiy farq soliq bazasidan chegirilmaydi. Shuni atish kerakki, so'nggi yillarda kamroq hisoblangan, ya'ni manfiy farq Soliq bazasidan chegirilsa, soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi byudjet tashkilotlari faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va bu yangi texnika-texnologiya bilan ta'minlanishiga turtki bo'lar edi. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi munosabati bilan respublikamiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashayotgan hozirgi kunda zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalangan tarzda, bozorlarimizni xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan, nisbatan arzon tovar va xizmatlar bilan ta'minlash juda dolzarb masala bo'lib turibdi. Buning uchun tovar va xizmatlar qiymatining asosiy qismini tashkil etuvchi tannarxni pasaytirish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnomasi (22.12.2010 yil, №2169-son)
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgaltyeriya hisobi to'g'risida"gi 13.04.2016 yildagi O'RQ-404-sonli Qonuni. (qo'shimchalar bilan)

3. "Byudjet tashkilotlarida buxgaltyeriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnomma O'z.R tomonidan 2010 yil 22 dyekabrdagi № 2169-son bilan ro'yhatdan o'tgan;
4. O'zbekiston Respublikasi Byudjet hisobining standarti (1-sonli BHS) "Hisob siyosati"ga (ro'yxat raqami 2853, 2016-yil 27-dekabr
5. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 306-modda. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)
6. Tuychiev, A. J., Ostonokulov, A. A., Ibragimov, K. S., & Tursunov, A. S. (2019). Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi. Darslik. T.: "IQTISOD MOLIYA, 390.
7. Mehmonov S.U., Ubaydullayev D. (2013) Byudjet tashkilotlarida buhgaltyeriya hisobi. Darslik. – T.: Sano –standart, 401 b.
8. Tuychiyev, A. J., Ostonokulov, A. A., Ibragimov, K. S., & Tursunov, A. S. (2019). Budget Accounting in Budget Organizations. Textbook, "ECONOMICS-FINANCE, 429.
9. Team Kissflow. Choosing Fixed Asset Depreciation Method for Your Organization. Updated on 17 Oct 2023 <https://kissflow.com/finance/asset-management/fixed-asset-depreciation-methods/>
10. Kurbanov Z.N., Nazarov A.K. Sovremenstvovanie ucheta amortizatsionix otchisleniy osnovnix sredstv. Economics: Yesterday, Today and Tomorrow. 2022, Vol. 12, Is. 8A
11. Kuldasheva M., Ostonokulov A. "Moliya" ilmiy jurnali. 2013 yil 4-son. 23-27-betlar